

Sanoat ishlab chiqarishining energiya samaradorligini aniqlash bo'yicha uslubiy Nizom

Ushbu Uslubiy nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114- son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uslubiy nizom "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga binoan sanoat ishlab chiqarishining energiya samaradorligi, shuningdek, yoqilg'i-energetika tarmog'ini tavsiflovchi alohida ko'rsatkichlar bo'yicha statistika axborotlarini shakllantirish tartibini belgilaydi.

Uslubiy nizom Xalqaro energetika agentligi tavsiyalariga asoslangan bo'lib, statistika organlari tomonidan sanoat ishlab chiqarishining energiya samaradorligi hisob-kitoblarini amalga oshirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

Energiya manbalarining samaradorligi bir vaqtning o'zida uzoq muddatli energiya xavfsizligi va iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi mumkin. Energiya sarfini kamaytirish yoki cheklanishini hisobga olgan holda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar energiya narxlarining ko'tarilishiga, energiya infratuzilmasidagi stressning kuchayishiga va elektr ta'minoti tizimidagi uzilishlarni chidamliligini oshirishi mumkin.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflar qo'llaniladi:

korxonaning energiya samaradorligi (EE) – mahsulot tannarxi tarkibida energiya xarajatlarining ulushi;

ishlab chiqarishning energiya samaradorligi – sanoat ishlab chiqarishi jarayonida asosiy va yordamchi texnologik jarayonlar uchun yoqilg'i va energiya sarfini tavsiflovchi ko'rsatkich;

yoqilg'i – asosiy tarkibiy qismi ugleroddan iborat bo'lgan modda bo'lib, uni yoqishda issiqlik energiyasi olish maqsadida qo'llaniladi;

yoqilg'i – energetika resurslari (TER) – ishlab chiqarish, maishiy va eksport ehtiyojlarini ta'minlash uchun mamlakatda mavjud bo'lgan yoqilg'i va energiyaning turli xil turlari (neftni qayta ishlash, gaz, ko'mir, torf va slanes sanoati mahsulotlari, atom va gidroelektrstansiyalar elektr energiyasi, shuningdek, mahalliy yoqilg'i mahsulotlari) yig'indisi;

energetika – energiya resurslarini, turli xil energiya manbalarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, uzatish va ulardan foydalanishni qamrab oluvchi sanoat kompleksi;

issiqlik energiyasi – issiqlik ta'minoti qurilmalarida isitish uchun ishlab chiqariladigan mahsulotlar;

ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) tannarxi – hisobot davrida boshqa tomonga, o'zining kapital qurilishiga, o'z korxonasining nosanoat bo'linmalariga berilgan o'zi ishlab chiqargan tayyor mahsulot, yarim tayyor mahsulotlar, hisobot davrida ishlab chiqarilishi tugallanmagan uzoq muddatli jarayonda tayyorlanuvchi mahsulotni tayyorlash bo'yicha ishlar, sanoat xususiyatiga doir bajarilgan ishlar va xizmatlar qiymatini o'z ichiga oladi;

yoqilg'i-energetika resurslari iste'moliga qilingan umumiy xarajatlar – tashkilotning yoqilg'i-moylash materiallari, issiqlik ta'minoti, elektr energiyasi iste'moli va gaz ta'minotiga umumiy xarajatlari.

2-bob. Energiya samaradorligini hisoblash manbalari

2. Energiya samaradorligini hisoblash uchun axborot manbai bo'lib quyidagi statistika hisobotlari birlamchi statistika ma'lumotlari hisoblanadi:

– 1 korxona shakli (yillik) “Tashkilot xo'jalik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida hisobot” (tijorat korxonalar tomonidan, kichik tadbirkorlik subyektlari, fermer xo'jaliklari, banklar va sug'urta tashkilotlaridan tashqari taqdim etiladi);

– 1 energo (sarflash) shakli (yillik) “Yoqilg'i va energiya kelib tushishi, sarfi va qoldiqlari to'g'risida” (Tijoratchi tashkilot bo'lgan yuridik shaxslar (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari), notijorat tashkilotlari (o'rnatilgan ro'yxat bo'yicha);

– 1 kb shakli (yillik) “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” (mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan taqdim etiladi).

3-bob. Energiya samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash usuli

3. Korxonalar bo'yicha energiya samaradorligining umumiy maqsadli ko'rsatkichlari quyidagicha hisoblanadi:

– korxonaning energiya samaradorligi (EE) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$EE = \frac{SSZ_{ter}}{SPP} * 100 \%,$$

bu yerda:

SSZ_{ter} – yoqilg'i-moylash materiallari, issiqlik ta'minoti, elektr energiyasi iste'moli va gaz ta'minotiga umumiy xarajatlar, ming so'm;

SPP – ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) tannarxi, ming so'm.

– elektr energiyasi iste'moliga qilingan xarajatlarning SSZ_{ter} dagi ulushi (D_{el}) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$D_{el} = \frac{Z_{el}}{SSZ_{ter}} * 100 \%,$$

bu yerda:

Z_{el} - elektr energiyasi iste'moliga qilingan xarajatlar, ming so'm.

– yoqilg'i iste'moliga qilingan xarajatlarning SSZ_{ter} dagi ulushi (D_t) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$D_t = \frac{Z_t}{SSZ_{ter}} * 100 \%,$$

bu yerda:

Z_t - yoqilg'i iste'moliga qilingan xarajatlar, ming so'm.

– issiqlik energiyasi iste'moliga qilingan xarajatlarning SSZ_{ter} dagi ulushi (D_{te}) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$D_{te} = \frac{Z_{te}}{SSZ_{ter}} * 100 \%,$$

bu yerda:

Z_{te} - issiqlik energiyasi iste'moliga qilingan xarajatlar, ming so'm.

Mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonida yoqilg'i-energetika resurslarining har xil turlaridan foydalanilgan taqdirda, yoqilg'i-energetika resurslarini shartli yoqilg'i birligiga qayta hisoblab, mahsulotlarning energiya sarfi ko'rsatkichlari aniqlanadi. Shu bilan birga, yoqilg'i-energetika resurslarini iste'mol qilish faqat asosiy va yordamchi ishlab chiqarish jarayonlari uchun hisobga olinadi, bunda isitish, yoritish, maishiy va boshqa ehtiyoj uchun xarajatlari hisobga olinmaydi.

Mahsulotlarning energiya samaradorligini hisoblashda, chiqindilar yoki undan mahsulot sifatida olingan ikkilamchi energiya manbalarining barcha turlari (agar ular keyingi ishlab chiqarish jarayonlarida ishlatilsa ham) chiqarib tashlanadi.

O'z ehtiyojlari uchun energiya resurslarini iste'mol qilish hajmining baza yilidagi iste'mol darajasiga nisbatan pasayishini tavsiflovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi.

- elektr energiyasini tejash (ming kVt soat);
- issiqlik energiyasini tejash (Gkal);
- gazni tejash (kubometr);
- neft mahsulotlarini tejash (tonna yoqilg'i ekvivalenti);
- ko'mirni tejash (tonna);

Energiya resurslarini yetkazib berish va taqsimlashning energiya samaradorligini oshirishni tavsiflovchi ko'rsatkichlarga energiya resurslarini yetkazib berish va taqsimlashdagi yo'qotishlarni kamaytirish ko'rsatkichlari kiradi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari "Statistik ma'lumotlarni taqdim etishning universal modeli" (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq amalga oshirilgan.

4. Sanoat ishlab chiqarishining energiya samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash va e'lon qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining Sanoat va energetika statistikasi boshqarmasi tomonidan yilda bir marta amalga oshiriladi.

5. Energiya samaradorligi bo'yicha hisob-kitoblar natijalari foydalanuvchilarning so'roviga asosan taqdim etiladi.

Foydalanilgan manbalar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015- yil 28-iyuldagi "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini joriy etish to'g'risida"gi 207-son qarori, 3b-son ilova.
2. BMTning energetika statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalari (IRES), 2019- yil.
3. Energiya samaradorligi ko'rsatkichlari: asosiy statistika // OECD/IEA, Xalqaro energetika agentligi, 2014- yil.
4. Kompilyatsiya qilish bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishning umumiy yondashuvlari Yoqilg'i-energetika balansi // MDH Statistika qo'mitasi, 2004- yil.